

NIZOLI DISKURSDA GENDERGA XOS LINGVOPRAGMATIK STRATEGIYALARNING NAMOYON BO'LISHI

Baxtiyorova Feruza Xurshidbek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktorant (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20373167>

ANNOTATSIYA. Ushbu tadqiqotda maishiy diskurs doirasida yuzaga keladigan nizoli kommunikatsiyalarda gender omilining lingvopragmatik strategiyalarga ta'siri tahlil qilinadi. Ishda tilning nafaqat kommunikativ vosita, balki ijtimoiy va madaniy identitetlarni diskursiv shakllantiruvchi mexanizm ekanligi asoslanadi. Genderga xos nutqiy xulqning erkak va ayollar o'rtasida konfliktni ifodalash, yumshatish yoki kuchaytirish jarayonlarida turlicha pragmatik strategiyalar orqali namoyon bo'lishi yoritiladi. Tadqiqotda olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda gender va diskurs o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib beriladi. O'zbek va ingliz tillari materiallari asosida amalga oshirilgan qiyosiy tahlil genderga xos kommunikativ modellar madaniy kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi. Natijada nizoli maishiy diskursda lingvopragmatik strategiyalar gender identitetining diskursiv konstruksiyasini ifodalovchi muhim indikator sifatida talqin etiladi.

KALIT SO'ZLAR: Gender, maishiy diskurs, nizoli kommunikatsiya, lingvopragmatika, sotsiolingvistika, gender identiteti, diskursiv konstruksiya, pragmatik strategiyalar, kommunikativ xulq, qiyosiy tahlil.

Til insonlar o'rtasidagi oddiy kommunikativ almashinuv vositasi bo'lish bilan cheklanmay, balki u jamiyatning ijtimoiy tuzilmalari, madaniy qadriyatlarini hamda individual identitetlarini aks ettiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, til gender bilan bog'liq ijtimoiy tasavvurlarni konstruksiyalash, reproduksiya qilish va qayta talqin etishda muhim funksional vosita sifatida xizmat qiladi. Nutq jarayoni turli lingvistik birliklar — so'zlar, iboralar, gaplar va matnlar orqali amalga oshiriladi hamda u og'zaki yoki yozma shaklda ifodalanishidan qat'i nazar, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy normalar va munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi.[10;1-19b.] Ayniqsa, tilning shakllanishi gender identifikatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda erkak va ayollarga nisbatan shakllangan ijtimoiy stereotiplar aks etadi. Shu bois til va gender o'rtasidagi munosabatlar sotsiolingvistikaning eng keng va chuqur o'rganilayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Genderga xos til (gendered language) nutqning jins omili bilan shartlangan differensial qo'llanilishini ifodalovchi lingvistik hodisa bo'lib, u siyosiy va maishiy kommunikatsiya, identitetning diskursiv konstruksiyalanishi hamda ijtimoiy birdamlikni shakllantirish jarayonlarida muhim funksional ahamiyat kasb etadi.[8; 482–502b.] Mazkur hodisa ayniqsa kundalik kommunikativ amaliyotlar doirasida faol namoyon bo'lib, unda reflektiv ravishda anglanmaydigan, biroq muntazam takrorlanish natijasida normativlashgan nutqiy qoliplar shakllanadi. Ushbu qoliplar an'anaviy gender rollariga mos nutqiy modellarning diskursiv reproduksiyasini ta'minlaydi hamda ularning tabiiy hodisa sifatida qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Biroq keyingi nazariy yondashuvlar ushbu lingvistik xususiyatlarning biologik determinizm bilan emas, balki ijtimoiy konstruktivizm paradigmasi doirasida izohlanishini asoslab berdi. Xususan, gender identiteti takroriy ijtimoiy va nutqiy amaliyotlar orqali diskursiv tarzda ishlab chiqiladigan va mustahkamlanadigan dinamik kategoriya sifatida qaraladi.[2; 10-12b.] Gender lingvistikasi erkak va ayollar nutqida uchraydigan tafovutlarni, kommunikativ xulqning hamda

maishiy diskurs elementlarining genderga xos jihatlarini, ijtimoiy-madaniy omillarning nutq tuzulishiga ta'sirini o'rganadi. Shu boisdan, ko'plab tadqiqotlarda ayollar va erkaklarning nutqiy strategiyalari, emotsional-ekspressiv vositalardan foydalanishi, murojaat shakllari hamda kommunikativ maqsadlarni ifodalash usullarida muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, maishiy diskursda ham gender lingvistikasining elementlari hamda omillarining ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, maishiy diskurs doirasida nizoli kommunikatsiyalarni gender aspektida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, oilaviy, kundalik va ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan konfliktli vaziyatlarda erkak va ayollarning lingvopragmatik strategiyalari turlicha namoyon bo'ladi. Va albatta, nizoli maishiy diskursda nutqning emotsionalligi, dominantlik, murosaga moyillik yoki bilvosita ta'sir strategiyalari genderga xos kommunikativ xususiyatlarni ochib beradi.[2; 10-12b.]

Erkak va ayollar nutqida nizoli vaziyatlarning ifodalanishi nafaqat lingvistik birliklar, balki pragmatik strategiyalar orqali ham farqlanadi. Xususan, ayollar nutqida konfliktni yumshatishga xizmat qiluvchi muloyimlik strategiyalari, emotsional-ekspressiv vositalar hamda bilvosita murojaat shakllari faol qo'llansa, erkaklar nutqida to'g'ridan-to'g'ri pozitsiyani ifodalash, dominantlikni saqlash va qat'iy pragmatik bosim strategiyalari ustunlik qiladi. Shu jihatdan gender omili nizoli kommunikatsiyaning shakllanishi va rivojlanishida muhim lingvopragmatik faktor sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, turli madaniy muhitlarda genderga xos kommunikativ xulq modellari o'ziga xos milliy-pragmatik xususiyatlarni aks ettiradi. Natijada nizoli muloqot jarayonida til birliklarining tanlanishi, murojaat shakllari va nutq strategiyalarida gender differensiasiyasi yaqqol kuzatiladi.

Nizoli maishiy diskursda genderga xos lingvopragmatik strategiyalar turli kommunikativ vaziyatlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Gender omili konfliktli kommunikatsiyada qo'llaniladigan nutqiy strategiyalar va pragmatik vositalarning tanlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, erkak va ayollar nutqida nizoni ifodalash usullari kommunikativ maqsad, ijtimoiy rol hamda madaniy stereotiplar asosida differensial tarzda shakllanadi. Shu jihatdan, lingvistika doirasida nizoli diskursning gender aspektida tadqiq etilishi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yondashuv kommunikativ xulqning yashirin pragmatik mexanizmlarini, gender stereotiplarining nutq orqali reproduksiyalanish jarayonini hamda konfliktli muloqotda til birliklarining funksional-pragmatik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, bunday tadqiqotlar turli lingvomadaniy muhitlarda genderga xos kommunikativ strategiyalarning o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilishga xizmat qiladi.

Nizoli maishiy diskursda genderga xos lingvopragmatik strategiyalarning farqlanishi zamonaviy sotsiolingvistika va pragmalingvistika doirasida bir qator nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi. Xususan, R.Lakoff tomonidan ilgari surilgan “gendered speech style” [1; 10-15b.] konsepsiyasiga ko'ra, ayollar nutqi ko'pincha yumshatuvchi, noaniqlikni saqlovchi va ijtimoiy moslashuvga yo'naltirilgan lingvistik vositalar orqali namoyon bo'ladi, bu esa konfliktli vaziyatlarda bilvosita pragmatik strategiyalarning ustuvorligini tushuntiradi. E. Goffmanning “face-work” nazariyasi nuqtai nazaridan esa, ayollar nutqidagi konfliktni yumshatishga qaratilgan strategiyalar kommunikativ “face-saving” funksiyasini bajarib, ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.[5; 40-47b.] Brown va Levinson ishlab chiqqan “politeness theory” doirasida bunday strategiyalar ijobiy va salbiy yuzga tahdidni minimallashtirishga qaratilgan diskursiv mexanizmlar sifatida talqin qilinadi. Erkaklar nutqida esa, tadqiqotchilar [3; 13b.] tomonidan qayd etilganidek, ko'proq direktiv, eksplisit va dominantlikka asoslangan

pragmatik shakllar ustunlik qiladi, bu esa konfliktli diskursda “power-oriented discourse style”ning namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Shuningdek, Bucholtz va Hallning ijtimoiy identitet nazariyasiga ko‘ra, gender identiteti statik emas, balki diskursiv amaliyotlar orqali performativ tarzda shakllanadi va konfliktli vaziyatlarda ayniqsa faollashadi. Shu nuqtai nazardan, maishiy nizoli diskursda ayollar tomonidan qo‘llaniladigan implitsit, bilvosita va emotsional-ekspressiv strategiyalar hamda erkaklarga xos to‘g‘ridan-to‘g‘ri, qat‘iy va dominant pragmatik shakllar gender identitetining diskursiv konstruksiyasini aks ettiruvchi muhim lingvistik indikator sifatida talqin etiladi.[6; 585–614b.]

Bundan tashqari, nizoli maishiy diskursda genderga xos pragmatik strategiyalarni izohlashda ijtimoiy kognitiv yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. T.van Dijkning diskurs va ijtimoiy kognitsiya haqidagi qarashlariga ko‘ra, nutqiy xulq nafaqat individual tanlov, balki jamiyatda shakllangan mental modellar va stereotipik bilimlar orqali boshqariladigan diskursiv amaliyotdir. Shu nuqtai nazardan, erkak va ayol nutqidagi konflikt ifodasi oldindan shakllangan “gender rollari haqidagi kognitiv skriptlar” asosida amalga oshadi, ya’ni kommunikantlar ongida mavjud bo‘lgan ijtimoiy kutishlar ularning pragmatik strategiyalarini bevosita yo‘naltiradi.[3; 41-42b.] Shuningdek, Ochs va Schieffelin tomonidan ilgari surilgan “tilning ijtimoiylashuvi” konsepsiyasiga ko‘ra, bolalikdan boshlab individlar genderga xos kommunikativ xulq modellarini ijtimoiylashuv jarayonida o‘zlashtiradi, bu esa keyinchalik maishiy diskursdagi konfliktli vaziyatlarda ham muayyan nutqiy stereotiplarning barqaror saqlanishiga olib keladi. Natijada ayollarda ko‘proq emotsional-regulyativ va munosabatni saqlashga yo‘naltirilgan strategiyalar, erkaklarda esa instrumental, direktiv va nazoratga asoslangan pragmatik usullar shakllanadi.

Xususan, ayollar nutqida konfliktni yumshatishga qaratilgan bilvosita murojaat shakllari, emotsional-ekspressiv vositalar hamda implitsit pragmatik strategiyalar faol qo‘llanilishi kuzatiladi. Masalan, o‘zbek maishiy diskursida uchraydigan “Mayli, xohlasangiz shunday qilavering” kabi konstruksiyalar yuzaki jihatdan rozilik mazmunini ifodalasa-da, pragmatik jihatdan yashirin norozilik va emotsional bosimni anglatadi. Erkaklar nutqida esa konfliktli vaziyatlarda ko‘proq dominantlikka asoslangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri pragmatik strategiyalar ustunlik qiladi. Jumladan, ingliz tilidagi “I already told you what the problem is” yoki o‘zbek tilidagi “Mening aytganim bo‘ladi” kabi birliklar kommunikativ nazorat, qat‘iy pozitsiya va pragmatik bosimni ifodalovchi diskursiv vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ayollar nutqida konfliktni kechiktirish va murosaga moyillik strategiyalari (“Balki keyinroq gaplasharmiz”) faol qo‘llansa, erkaklar nutqida konfliktni tezkor hal qilishga yo‘naltirilgan kommunikativ strategiyalar (“Let’s finish this now”) ustunligi kuzatiladi. Bu esa gender omilining nizoli kommunikatsiyada lingvistik birliklar tanlovi, pragmatik maqsad va kommunikativ xulq shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Shu sababli, o‘zbek va ingliz maishiy diskursida kuzatiladigan gender differensiasiyasi nafaqat til birliklari darajasida, balki chuqur ijtimoiy-kognitiv va madaniy strukturalar bilan belgilanadigan murakkab diskursiv hodisa sifatida talqin etiladi.

Til gender rollarni ifodalashda nafaqat neytral vosita, balki ularni yaratish, takrorlash va mustahkamlash mexanizmiga ham aylanishi mumkin. O‘zbek tilida ko‘plab atamalar jinsga nisbatan neytral bo‘lishiga qaramay, ularning qo‘llanilishida jinsiy farqlanish aniq ko‘zga tashlanadi. Masalan, “o‘qituvchi”, “shoir”, “rahbar” kabi so‘zlar aslida umumiy bo‘lsa-da, ular ayol kishiga nisbatan ishlatilganda ko‘pincha “ayol” komponenti bilan birga qo‘llaniladi: “shoir ayol”, “rahbar ayol”. Bu holat o‘zbek tilining androsentrik xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. [11; 89-b.] Coates (2015) ta’kidlaganidek, til tizimi jamiyatdagi gender tengligini neytral tarzda aks ettirmaydi, aksincha mavjud ijtimoiy kuch va hukmronlik munosabatlarining diskursiv reproduksiyasiga

xizmat qiladi.[7; 45-47-b.] Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zbek tilida kuzatiladigan gender neytrallik ko‘proq formal xarakter kasb etib, real kommunikativ amaliyotda erkak markazli lingvistik model ustunligi sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, kasb nomlari, baholovchi birliklar hamda maishiy murojaat shakllarida, nizoli vaziyatlarda erkak identitetining “normativ” pozitsiya sifatida markazlashuvi tilning androsentrik xususiyatini ochib beradi.

Gender masalasini lingvistik jihatdan tadqiq etishda uning ijtimoiy-madaniy asoslarini hisobga olish muhim metodologik tamoyil hisoblanadi, chunki gender rollari til orqali nafaqat ifodalanadi, balki muntazam ravishda qayta ishlab chiqariladi va legitimlashtiriladi. Shu sababli til oddiy kommunikativ vosita doirasidan chiqib, jamiyatdagi ijtimoiy me‘yorlar, stereotiplar va hokimiyat munosabatlarini shakllantiruvchi muhim diskursiv mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Gender lingvistikasi aynan shu jihatlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa androsentrik jamiyatlarda til tizimidagi gender differensiasiyasini tahlil qilish ijtimoiy tenglik, identitet va diskursiv hokimiyat masalalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

O‘rganilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nizoli maishiy diskursda gender omili lingvopragmatik strategiyalarning tanlanishi va amalga oshirilishida muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Erkak va ayollar nutqida konfliktni ifodalash usullari nafaqat lingvistik vositalar, balki ijtimoiy rol, madaniy stereotip va kommunikativ maqsadlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Tahlillar gender identitetining diskursiv konstruksiyasi nizoli vaziyatlarda ayniqsa yaqqol faollashishini tasdiqlaydi. Umuman olganda, maishiy diskursdagi konfliktli kommunikatsiya genderni xos pragmatik modellarni aniqlash uchun muhim empirik maydon bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Lakoff, R. (1975). *Language and Woman’s Place*. New York: Harper & Row.
2. Butler J. *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity*. — New York: Routledge, 1990; Coates J. *Women, Men and Language*. — London: Routledge, 2013
3. Holmes, J. (2006). *Gendered Talk at Work: Constructing Gender Identity through Workplace Discourse*. Oxford: Blackwell Publishing.
4. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Goffman, E. (1967). *Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior*. New York: Anchor Books.
6. Bucholtz, M., & Hall, K. (2005). Identity and interaction: A sociocultural linguistic approach. *Discourse Studies*, 7(4–5), 585–614.
7. Coates, J. (2013). *Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language*. London: Routledge.
8. Cameron, D. (2005). Language, gender, and sexuality: Current issues and new directions. *Applied Linguistics*, 26(4), 482–502.
9. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. (2013). *Language and Gender*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Wiratno, T., & Santosa, R. (2014). Bahasa, fungsi bahasa, dan konteks sosial. *Modul Pengantar Linguistik Umum*, 1-19.
11. Islomova, G. (2015). *O‘zbek tilida gender va til birliklari*. Toshkent: Universitet nashriyoti. – 89-bet.